



МАHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA HOJI MUIN

Nilufar Namazova

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi
o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada Turkiston jadidlarining ma'naviy otasi Mahmudxo'ja Behbudiy va u bilan birga faoliyat yuritgan Hoji Muin Shukrullahov o'rtaşıdagi munosabatlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Behbudiy, Hoji Muin, matbuot, ustoz.

Аннотация. В статье говорится о взаимоотношениях Махмудходжи Бехбуди, духовного отца туркестанских джадидов, и работавшего с ним Хаджи Муина Шукруллаева.

Ключевые слова: Бехбуди, Хаджи Муин, пресса, преподаватель.

Annotation. The article talks about the relationship between Mahmudhodzhi Behbudi, the spiritual father of the Turkestan Jadids, and Hadji Muin Shukrullaev, who worked with him.

Keywords: Behbudi, Haji Muin, press, teacher.

Turkiston jadidlarining ma'naviy otasi, taraqqiyatparvar yoshlarining ustozasi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy haqida XX asr birinchi yarmida matbuotda ko'plab maqolalar, xotiralar chop etilgan. Lekin Behbudiyning nomini, uning xotirasini Hoji Muinchalik yodga olgan boshqa bir kishini uchratmadik.

Hoji Muin "Buyuk ustozimiz Behbudiy afandi" maqolasida Behbudiyning "Muxtasar jo'g'rofiyai umumiy" asarini o'qib, uning chin muxlisiga aylanganini yozadi. Bu asardagi: "Ba'zi eski xurofot va isroiliyat so'zlari bizning tafsir kitoblarimizgacha kirib ketgan" mazmunindagi jumlalar o'shal vaqtida menim fikrimda zo'r o'zgarishlar yasadi. Ya'ni o'shal jumla meni birinchi daf'a fikriy inqilobg'a uchratdi" [1] deydi.

Behbudiy insoniy komilligi bilan ham Hoji Muinni maftun etgan edi. U ustozining ajoyib xislatlari haqida shunday yozadi: "Behbudiy afandi halim, ziyrak, g'oyat zakovatli, quvvai hofizasi zo'r bo'ldig'idan so'zga-da nihoyat darajada ustoz edi. Ul har so'zig'a qanoatlantirmak uchun turli misollar keltura, mavqeyi kelganda oyat va hadisdan dalillar ko'rsata edi. Shuning uchun oning suhbati g'oyat lazzatli va istifodali bo'lur edi... Oning suhabatinda bo'lg'on kishi ruhlana, shodlana va oning oldindan aslo turg'usi kelmas edi... Behbudiy afandi shaxsiy dushmanliqni xohlamas va hech kimning shaxsig'a va shaxsiy ishlariga til yetkuzmas edi. O'shandoq o'zini





takfir va tahqir etaturg‘on xasmlarig‘a-da qarshi yomon va haqoratomuz so‘zlar so‘zlamas edi. Balki shunday so‘zlarni eshitganda: “zotan munday din va dunyodan xabarsiz kishilardan yaxshi so‘zlar kutmak-da abas“, deb kular edi. “Munday takfirlarni yolg‘uz men ko‘rgan emas, balki o‘tgan olimu ulug‘ kishilar ham o‘z maosirlarindan shunday takfirlarni ko‘rib kelganlar”, deb kula edilar. Behbudiy afandida yana bir xususiyat bor ediki, xasm va dushmanlari oning ketidan har qancha g‘iybat va haqorat etsalar-da, oning huzurig‘a o‘turg‘onda hech bir behuda so‘z aytolmasdan, onga tamliq va madora etarga majbur bo‘lalar edi”.

Hoji Muin Behbudiyni “buyuk ustoz“ deb bilar ekan, Behbudiyning unga munosabati qanday edi? Bu kabi savollarga matbuotda chop etilgan maqolalardan javob topishga harakat qilamiz. Negaki, Hoji Muin tomonidan Behbudiyning “Vasiyatnomá”si chop etilgan bo‘lib, uni Hoji Murod keltirib bergenligi yozilgan. Bizni o‘ylantirgan masala esa vasiyatnomada Hoji Muin nomining yozilmaganligidir. Vasiyatnomada Mahmudxo‘ja Behbudiy Samarqand ijtimoiy-adabiy muhitida birga faoliyat yuritgan ziyolilarga murojaat qilar ekan, negadir 1903-yildan o‘ziga safdosh, ko‘makdosh bo‘lib kelgan Hoji Muinni unutgani kishini ajablantiradi. Biz Behbudiy qalamiga mansub maqolalardan uning Hoji Muinga munosabatini bilishga intilib ko‘rdik. Behbudiy yozgan maqolalarda Hoji Muin, eng avvalo, muallim sifatida tilga olingan. Masalan, “Munozara” haqida” maqolasida Behbudiy Abdurauf Fitratning shu nomli asari xususida so‘z yuritib uning tarjimonni bo‘lgan Hoji Muin to‘g‘risida shunday yozadi: “Va al-on bu risola turkiy tilinda janob muallim hamshahrimiz Hoji Muin afandi tarafidan tarjima va ushbu gazit ila nashr bo‘lub turubdur” [2]. Shuningdek, Behbudiy sayohatga chiqish oldidan yozgan “Qasdi safar“ maqolasida “Oyina”ning keyingi taqdiri haqida so‘z yuritib, “Muvvaqqat muharrirligi muallim Hoji Muin janoblariga havola etildi” [3], deb yozgan. Sevimli jurnaliga muharrir etib tayinlashi, albatta, uning muallim Hoji Muinga bo‘lgan ishonchini ifodalar edi. Bu esa “Muallim”ning jurnalistik faoliyatiga ham berilgan bahodir. Jadid adabiyotini yaxshi o‘rgangan nemis olimasi Ingeborg Baldauf uning jurnaldagi faoliyati haqida “Mahmudxo‘janing istagidan bir oz chetlashib, “Oyina”ni sof turkiy jurnalga aylantirib ham qo‘ydi... Bilmadim, shu hol sabab bo‘lganmi, har holda shundan keyin Mahmudxo‘ja bilan Hoji Muin o‘rtalariga sovuqchilik tushib, ularning jurnal tahririyatidagi hamkorligiga darz ketdi” [4], deb yozadi. Biz qo‘limizda “Oyina” jurnalining 1915-yilgi sonlari yo‘qligi sababli, ularning jurnal “tahririyatidagi





hamkorligiga darz” ketganligini tasdiq yoki inkor eta olmaymiz. Biroq agar ular o'rtasiga sovuqchilik tushgan bo'lsa, bu ko'pga cho'zilmagan. Negaki, Hoji Muinning tez orada boshlangan dramaturglik faoliyatida Behbudiyning ta'siri katta bo'lganligi seziladi. “O'zbek teatri tarixi uchun materiallar”ni yozgan M.Buzruk Solihov Hoji Muinni Behbudiyning “yaqin fikrdoshi va shogirdi” ekanligini yozar ekan, “Adabiy hayotda Behbudiyning ta'siri ostida va uning guruhidan bo'lib boradi. Ayni zamonda fevral inqilobidan burunda eng ko'p piyesa yozgan kishi deb aytsa bo'ladi” [5], deydi.

Chunonchi, Hoji Muin bir maqolasida “Mazluma xotun” dramasini yozish vaqtida Behbudiyning oldiga borib, taaddud zavjot(ko'p xotinlilik-N.N.) haqidagi fikrini so'raganini, Behbudiy esa: “Men birdan ortiq xotun olishg'a butun muqobilman. Zotan, ikkinchi xotun olish uchun qo'yilg'on shart-adolatni hech kim rioya qila olmaydi”, deya javob bergenini yozadi. Bundan ko'rindaniki, Hoji Muin dramalarini yozishda Behbudiyning fikrlari bilan qiziqqan, Behbudiy ham undan maslahatlarini ayamagan.

Ularning turli masalalarda hamfikrli “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalida chop etilgan boshqa maqlolalarda ham ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, jadid ziyoilari milliy tarix yaratish masalasini o'rtaga tashlashgan edi. Zero, o'z tarixini, o'zligini bilmagan millatning istiqboli bo'lmasligini ular yaxshi bilishardi. Turkistonning o'sha paytda mahalliy ziyoililar va rus olimlari tomomnidan yozilgan tarixi yerli xalqlarning milliy g'ururini kuchaytirishga xizmat qilolmasdi. M.Behbudiy va H.Muin esa, eng avvalo, mana shuni istashgandi. “Samarqand” gazetasining birinchi sonida Sherdor madrasasining surati va qisqacha tarixi berilganligi bejiz emasdi. Bu, avvalo, Amir Temurning “Bizning qudratimizni bilmoqchi bo'lsang, biz qurban imoratlarga boq”, degan gaplarini yodga solishi turgan gap. Hoji Muin ham masalaning mana shunday nozikligini anglab yetdi. 1914-yilda “Sadoi Turkiston” gazetasida ushbu masala yuzasidan qo'yilgan savolga javoban Hoji Muinning “Milliy tariximizni kim yozar?” [6] sarlavhali maktubi chop etildi. Maktub muallifi turkistonliklar uchun mufassal va muallimlar uchun muxtasar Turkiston tarixi kerakligi, tarix yozuvchi kishining to'rt - turkiy, forsiy, arabiylar va rusiy tillarida “turk va Turkiston haqida yozilg'on eski va yangi kitoblarni tadqiq va tatbig' aylab” so'ngra tarix yozishi lozimligini ta'kidlaydi. Ko'rindaniki, publitsist tarix yozuvchi - muarrix oldiga qat'iy talablar qo'ygan.





Zero, Turkiston tarixida davlat lisoni bo'lib almashinib kelgan bu to'rt tilda yozilgan asarlar o'z davri haqida ma'lumot berib, tarixni xolis ko'rsatishning muhim vositasi edi. Lekin Hoji Muin bunday talablarga javob bera oladigan muarrixning Turkistonda borligidan bexabar ekanligini, "bo'lmag'on taqdirda" bu ishni "qozonli muhtaram Ahmad Zakiy afandi Validiy janoblarining qalamidan" umid etishini yozadi.

Ko'p o'tmay, ushbu savolga javoban "Oyina" jurnalida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Turkiston tarixi kerak" maqolasi chop etildi. Behbudiy ham: "Bizning fikrimizcha, munday tarixni yozmoqlik nihoyatda qiyin bo'lib, hozirda buning iyfosi bizning qo'limizdan kelmaydurgong'a o'xshaydur. Shuning uchun bu xizmatni Turkiston tarixi bilan oshno bo'la boshlagan yosh muarriximiz, muhtaram Ahmad Zakiy Validiy afandining qalamidan umid etmakdamiz" [7], deydi.

Ularning hamkorlikdagi faoliyatini "Hurriyat" gazetasida ham kuzatish mumkin. Bu hamkorlik 1918-yildan keyin ham davom etgan. "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida chop etilgan materiallar dalolat beradiki, Hoji Muin maorif komissari etib tayinlangan Behbudiyning o'ng qo'li bo'lgan. Xullas, bu ikki hammaslak do'st o'rtasidagi o'zaro hurmatga darz yetmagan. Nima bo'lganda ham, Hoji Muin hayotining oxirigacha ustoziga shogirdlik sadoqati bilan yashadi. Bu sadoqat Behbudiy nomini yod etish, uning xotirasini abadiylashtirish uchun yelib-yugurishdangina iborat bo'lmadi, balki u ustozи butun hayotini bag'ishlagan ishlarni davom ettirdi. Uning Behbudiy haqidagi maqolalari esa bugungi kunda ham qimmatli manba sifatida qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoji Muin. Buyuk ustozimiz Behbudiy afandi // Mehnatkashlar tovushi. 1920. 8 apr.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 1997. 211 b.
3. Mahmudxo'ja Bejbudiy. Qasdi safar // Oyina. 1914. № 34. B. 598-600.
4. Baldauf Ingeborg. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. – T.: Ma'naviyat, 2001. B. 44.
5. M.Buzruk Solihov. O'zbek teatri tarixi uchun materiallar. – T. O'zSSR Davlat nashriyoti. 1935. B. 97.
6. Sadoi Turkiston. 1914. 1-iyul.
7. Mahmudxo'ja Bejbudiy. Turkiston tarixi kerak // Oyina. 1914. №38. B. 898-900.

